

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ALMOSOVA SHAHNOZA SOBIROVNA**

**JAHON SAVDO TASHKILOTI DOIRASIDA INTELLEKTUAL MULK  
HUQUQLARINING XALQARO-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Almosova Shahnoza Sobirovna**

Jahon Savdo Tashkiloti doirasida intellektual mulk huquqlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi.....	3
--	---

**Almosova Shahnoza Sobirovna**

International legal regulation of intellectual property rights in the framework of the World Trade Organization.....	20
--	----

**Алмосова Шахноза Собировна.**

Международно-правовое регулирование прав интеллектуальной собственности в рамках Всемирной Торговой Организации.....	37
--	----

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....	42
----------------------------------	----

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ALMOSOVA SHAHNOZA SOBIROVNA**

**JAHON SAVDO TASHKILOTI DOIRASIDA INTELLEKTUAL MULK  
HUQUQLARINING XALQARO-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1259 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umaranova Dildora Sharipxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Umaraxunov Irkin Mirzaxidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya**  
universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 1-avgust soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1274 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 16-iyul kuni tarqatildi.  
(2024-yil 16-iyulda 9-raqamli reestr bayonnomasi)

**S.S.Gulyamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**D.N.Mahkamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Sh.X.Fayziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Dunyoda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar rivojlanishi hamda kundan-kunga yangi savdo belgilari, xizmat ko‘rsatish turlari va barcha sohalarda innovatsiyalar soni ko‘payib borayotgan bir davrda intellektual mulk huquqlarining tijoriy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ushbu huquqlar himoyasi jahon savdosining 98 foizini nazorat qiluvchi 166 ta mamlakat a’zoligiga ega<sup>1</sup> Jahon Savdo Tashkiloti doirasiga kiritilganligi, shu bilan birga, bugungi kunda soni 3000ga yaqinlashib qolgan ikkitomonlama investitsiya shartnomalari<sup>2</sup> va 371 ta amaldagi mintaqaviy savdo shartnomalari<sup>3</sup> ham tobora intellektual mulk bilan bog‘liq bandlarni qamrab olayotgani xalqaro savdo munosabatlarida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahonda davlatlar tomonidan intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy tizimini takomillashtirish, ushbu huquqlarning xalqaro savdo aloqalariga tobora kengroq kirib borish tendensiyalarini kompleks tahlil qilishga oid ilmiy tadqiqotlarni bajarishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xusan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarining 9.5-maqsadida<sup>4</sup> ham innovatsiyalarni rag‘batlantirish va ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini oshirish asosiy yo‘nalishlardan qilib belgilanishi hamda 2001-yilda intellektual mulk va jamoat salomatligi o‘rtasida muayyan darajada muvozanat o‘rnatish imkonini bergen Doha deklaratsiyasining qabul qilinishi ortidan intellektual mulk huquqlari muhofazasi tizimida ma’lum natijalarga erishilgan. Shunga qaramay, zamonaviy sharoitlar ushbu tizimning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks tarzda o‘rganishni, ayniqsa, bu boradagi yangi shakllanib kelayotgan masalalar, intellektual mulk va jamoat salomatligi, biotexnologiyalar, texnologiyalar transferi, sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabatlarni jahon savdosini tartibga solish borasidagi tashkillashtiruvchi ahamiyati nuqtai nazaridan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qiyoslanuvchi Jahon Savdo Tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – JST) doirasiga qamrab olishni dolzarb qilib qo‘ymoqda.

JSTga a’zo bo‘lish O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Jumladan, 2023-yilning 19-sentyabrida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida mamlakat prezidenti tomonidan Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lishni iqtisodiyotimizni liberallashtirish yo‘lidagi ustuvor vazifa sifatida ta’kidlandi<sup>5</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 93-maqsadida ham milliy qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini Jahon savdo tashkilotining qoida, me’yor va bitimlariga moslashtirish 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston qonunchiligini JSTning asosiy bitimlari talablari, jumladan, intellektual mulk

<sup>1</sup> Who we are: [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/who\\_we\\_are\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/who_we_are_e.htm)

<sup>2</sup> Investment Policy Hub: <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements>

<sup>3</sup> Regional Trade Agreements Database: <http://rtais.wto.org/UI/PublicMaintainRTAHome.aspx>

<sup>4</sup> The Global Goals. Goal 9: <https://www.globalgoals.org/goals/9-industry-innovation-and-infrastructure/>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi: <https://president.uz/oz/lists/view/6679>

huquqlarining savdoga oid jihatlari to‘g‘risidagi bitimi (TRIPS bitimi) normalari bilan uyg‘unlashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Raqobat qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, oxirgi yillar davomida respublikamiz bo‘yicha nohalol raqobat bo‘yicha kelib tushgan shikoyatlar soni 7 martaga ko‘paygan<sup>6</sup> bir davrda qonunchiligmizni jahon standartlariga uyg‘unlashtirish nafaqat respublikaning yirik moliyaviy tashkilotlarga integratsiyalashuvida, shuningdek, optimal milliy muhofaza rejimini yaratishda juda muhim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4965-sonli “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-sonli “Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Mustaqillik yillarda intellektual mulk huquqlari doirasida bir qancha olimlarimiz anchagina izlanishlar olib borganlar. Tadqiqot mavzusining turli jihatlari huquqshunoslikning turli yo‘nalishlarida tadqiq etilganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Jumladan, intellektual mulk obyektlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi, tijoratlashtirish masalalari va ular bilan bog‘liq nizolarni sudlarda ko‘rishning ayrim jihatlari milliy huquqshunos olimlar X.Rahmonqulov, O.Oqyulov, Sh.Shoraxmetov, B.Toshev, N.Imomov, Z.Akramxodjayeva, S.Safoeva, I.Rustambekov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bu sohadagi xalqaro standartlar, ayniqsa, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

B.Toshev tomonidan xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi mavzusi doirasida ushbu sohadagi xalqaro-huquqiy aktlar va xalqaro-huquqiy normalar tadqiq qilingan.

X.Islamxodjaev, Z.Kamilova, Sh.Shodixodjaev, U.Yakubxodjayev, R.Azzodjayeva, S.Usmanova kabi olimlarimiz esa JST bo‘yicha tashkilot faoliyatining har xil yo‘nalishlari doirasida tadqiqotlar olib borgan, xususan, X.Islamxodjaev O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishining tashkiliy-huquqiy jihatlarini, Z.Kamilova

<sup>6</sup> <https://uzreport.news/analytics/zashita-intellektualnoy-sobstvennosti-v-uzbekistane-problemi-i-puti-ih-resheniya>

JST bilan xalqaro hamkorlik doirasida innovatsion integratsiyaviy protseduralarni, Sh.Shodixodjaev JST va rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida nizolarni hal etish masalalarini, U.Yakubxodjayev JSTning huquqiy arxitekturasi va uning assimetriyalarini, R.Azzodjayeva JST doirasida sog‘liqni saqlashning xalqaro huquqiy tartibga solinishi masalalarini tadqiq qilgan. Shu bilan birga, Z.Ubaydullaev, B.Toshev, A.Kamarov tomonidan xalqaro savdo huquqining ba’zi tomonlari o‘rganilgan. A.Yuldashev esa o‘z ilmiy ishlarida tadqiqot mavzusining turli jihatlari yuzasidan keng tadqiqotlar olib borgan. Garchi tadqiqot mavzusi doirasida muayyan ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘lsa-da, JST doirasida intellektual mulk huquqlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi bo‘yicha yagona monografik tadqiqot olib borilmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

MDH mamlakatlari olimlarining, shu jumladan, D.Dvornikov, A.Azarov, Yu.Matveyev, N.Karpova, V.Shumilov, A.Tsepov ilmiy ishlarida tadqiqot mavzusi yoritilgan, shuningdek, K.Remchukov, I.Dyumulen, I.Sergeev kabi olimlar asarlarining ma’lum boblari aynan intellektual mulkning savdo jihatlari yoki JST doirasida himoya qilinishiga bag‘ishlangan.

Shu bilan bir qatorda, tadqiqot davomida ko‘p sonli g‘arb olimlari, masalan, V.den Bosch, C.Deere, Carlos M. Correa, J.Malbon, Ch.Lawson, D.Matthews, F.Abbot, K.Peter, M.Mina, M.Carlos, H.Jackson, T.Cottier, E.Solovy, P.Krishnamurthy, Grosse Ruse-Khan ilmiy ishlaridan foydalanildi<sup>7</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlar rejasidagi “Milliy qonunchilikni Jahon Savdo Tashkiloti bitim, qoida va me’yorlariga muvofiqlashtirish muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** JST doirasida savdoga oid intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiliginin TRIPS bitimi normalari bilan uyg‘unlashtirish hamda intellektual mulk huquqlari muhofazasining xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

savdoga oid intellektual mulk huquqlarini xalqaro-huquqiy tartibga solishning nazariy masalalarini kompleks o‘rganish;

savdoga oid intellektual mulk huquqlari muhofazasining universal va mintaqaviy shartnomaviy huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

savdoga oid intellektual mulk huquqlarini xalqaro-huquqiy tartibga soluvchi institutsional asoslarini tadqiq etish va ularni tasniflash;

JST doirasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

JST doirasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmini ko‘rib chiqish;

<sup>7</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

TRIPS bitimi normalarini qo'llash bo'yicha JST a'zo-davlatlarining xalqaro-huquqiy majburiyatlarini tahlil qilish;

TRIPS bitimini xorijiy davlatlar amaliyotiga, jumladan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari huquqiy amaliyotiga tatbiq etilishini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini JST intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi normalari bilan uyg'unlashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar tayyorlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida JST doirasida intellektual mulk huquqlarini tartibga solish bilan bog'liq xalqaro-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** savdoga oid intellektual mulk huquqlarini xalqaro darajada tartibga soluvchi universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar hamda mexanizmlar, JST doirasida savdoga oid intellektual mulk huquqlarini tartibga solish masalalari, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlari amaliyoti hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini JST intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi normalari bilan uyg'unlashtirish masalalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda qiyosiy-huquqiy tadqiqot, tarixiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, mantiqiy tahlil etish, umumlashtirish, tizimli yondashuv, empirik tadqiqotlar hamda muammoli vaziyatlar (case law) tahlili kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi geografik ko'rsatkich tushunchasi ta'rifini shakllantirishda JSTning TRIPS bitimi matnidagi "reputation" so'zining ma'nosini beruvchi "tanilganligi" yoki "nom qozonganligi" so'zi qo'llanilishi kerakligi asoslantirilgan;

JSTning TRIPS bitimida belgilangan sanoat mulki obyektidan patent egasining rozilgisiz unga mutanosib miqdorda tovon to'lagan holda foydalanilishiga ruxsat berish bilan bog'liq majburiy nomutlaq litsenziyalar berish tartib-taomillarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilash zarurati asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasida patentlar bilan muhofaza qilinadigan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalarni tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlarda patent egasini xabardor qilgan va mutanosib miqdorda unga tovon to'lagan holda qo'llashga ruxsat berish zarurligi asoslantirilgan;

JST TRIPS bitimining "agar patentlangan usul bilan olingan mahsulot yangi bo'lsa, sud tomonidan javobgarga bunday mahsulotni olish usuli patentlangan usuldan farq qilishini isbotlash majburiyatini yuklash" bo'yicha normasi O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligidagi aks etishi zarurligi asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi JST TRIPS bitimida keltirilgan dori mahsulotlariga marketing ruxsatini olish talab etilganda tarkibida yangi kimyoviy moddalar mavjud bo'lgan dori vositasini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat organlariga taqdim etilgan hujjatlardagi oshkor etilmagan ma'lumot ariza beruvchining rozilgisiz oshkor etilmasisligi va undan tijorat maqsadlarida foydalanishni ta'qiqlash bilan bog'liq normani mustahkamlash zarurligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

1995-yil 22-dekabrdagi Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (keyingi o'rnlarda – BIMT) va Jahon Savdo Tashkiloti o'rtasidagi amaldagi hamkorlik to'g'risidagi Bitimni qayta ko'rib chiqish zarurati asoslantirilgan;

TRIPS Kengashi tarkibida muayyan intellektual mulk obyekti bo'yicha ish olib boruvchi alohida qo'mitalar tashkil etish zarurati asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasi uchun JST doirasidagi majburiyatlariga riosa etilishini ta'minlash maqsadida mamlakat qonunchilikiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritib borish maqsadida taqdim etiladigan o'tish davri muddatlarini belgilashga erishish zarurati asoslantirilgan;

Jahon Savdo Tashkiloti bilan ishslash bo'yicha muzokalarlar guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasining TRIPS bitimi bilan parallel ravishda 2001-yilda qabul qilingan "Intellektual mulkning savdoga oid jihatlari bo'yicha bitim va jamoat salomatligi to'g'risida"gi Doha deklaratsiyasi ishtirokchisiga aylanishini ta'minlash maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan;

rivojlanayotgan davlatlarning TRIPS bitimini milliy qonunchilikka tatbiq etish borasidagi tajribalarini o'rganish va O'zbekiston Respublikasi uchun qo'llash zarurligi asoslantirilgan;

JST-TRIPS bo'yicha tadbirkorlarga pro bono konsultatsiya markazlarini tashkil etish zarurligi asoslantirib berilgan;

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini JSTning TRIPS bitimi bilan uyg'unlashtirish zarurati asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchhliligi.** Tadqiqot ishida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar, xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlar va sud amaliyoti materiallari rasmiy manbalardan olingani, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o'zaro tahlil qilingani, tadqiqot natijalari nufuzli milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ko'rib chiqilgan muammolarning dolzarbligiga, xulosalar va takliflarning asoslantirilganlik darajasiga qarab belgilanadi. Mazkur tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalardan ilmiy-tadqiqot faoliyatida, "JST huquqi", "JST doirasida nizolarni hal etish", "Intellektual mulk huquqi", "Xalqaro intellektual mulk huquqi" kabi o'quv kurslarini ilmiy-nazariy boyitishda, ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligida ko'rindi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan qoidalar va xulosalardan qonun ijodkorligi faoliyatida, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, jumladan, intellektual mulk sohasidagi qonunchilik normalarini va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

TRIPS bitimi 22-moddasidagi “geografik ko‘rsatkich” tushunchasi ta’rifi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi Qonunidagi “geografik ko‘rsatkich” tushunchasiga berilgan ta’rifni o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadida bitim mazmunidagi “reputation” atamasining ma’nosini beruvchi “tanilganligi” yoki “nom qozonganligi” so‘zini kiritish bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sudhuquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 15-apreldagi 10-sonli dalolatnomasi). Bu taklif O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligidagi “tovar kelib chiqqan joy nomi” hamda “geografik ko‘rsatkich” atamalarini o‘zaro farqlashda aniqlik kiritishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuning 11<sup>1</sup>-moddasi matnini ishlab chiqishda “Intellektual mulk huquqlarining savdoga oid jihatlari” bo‘yicha bitimning 31(bis)-moddasi va bitim ilovasida keltirilgan majburiy litsenziyalash tizimini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga joriy etish maqsadida sanoat mulki obyektidan patent egasining rozilgisiz mutanosib miqdorda unga tovon to‘lagan holda foydalanishiga ruxsat berish hamda majburiy oddiy (nomutlaq) litsenziyalar berish tartib-taomillarini belgilash bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuning 1-moddasi 2-qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 6-martdagi 02/4-61-son dalolatnomasi). Bu O‘zbekiston Respublikasida sanoat mulki obyektidan patent egasining rozilgisiz foydalanish bilan bog‘liq qonunchilik bazasi hamda amaliyotini JST TRIPS bitimi normalari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuning 12-moddasi 2-qismi 2-bandida keltirilgan patentlar bilan muhofaza qilinadigan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalarni tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlarda patent egasini xabardor qilgan va unga mutanosib miqdorda tovon to‘lagan holda qo‘llashga ruxsat berish bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuning 1-moddasi 3-qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 6-martdagi 02/4-61-son dalolatnomasi). Bu hukumatga favqulodda holatlarda patent huquqlaridan istisno qilishga ruxsat berish barobarida patent egalarining ham patentdan kelib chiquvchi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuni 30-moddasi ikkinchi qismini “agar patentlangan usul bilan olingan mahsulot yangi bo‘lsa, aksini isbotlovchi dalillar mavjud bo‘lmagan taqdirda, aynan o‘xshash mahsulot patentlangan usuldan foydalanish orqali olingan hisoblanadi, shu holatda sud tomonidan javobgarga bunday mahsulotni olish usuli patentlangan usuldan farq

qilishini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin” so‘zları bilan to‘ldirish orqali milliy qonunchilikni “Intellektual mulk huquqlarining savdoga oid jihatlari” bo‘yicha bitim 34-moddasi birinchi qismi “a” kichik bandiga uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiliginı Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuning 1-moddasi 4-qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 6-martdagi 02/4-61-son dalolatnomasi). Bu O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi intellektual mulk huquqlarining usulga oid huquqbuzilish holatlarida isbotlash bilan bog‘liq normalarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuning 12-moddasini “Intellektual mulk huquqlarining savdoga oid jihatlari bo‘yicha” bitimning 39-moddasi 3-qismi bilan muvofiqlashtirish maqsadida dori mahsulotlariga marketing ruxsatini olish talab etilganda tarkibida yangi kimyoviy moddalar mavjud bo‘lgan dori vositasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat organlariga taqdim etilgan hujjalardagi oshkor etilmagan ma’lumot ariza beruvchining rozilgisiz oshkor etimasligi va undan tijorat maqsadlarida foydalanishni ta’qiqlash bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiliginı Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 6-martdagi 02/4-61-son dalolatnomasi). Bu milliy qonunchiligidizda oshkor etilmagan ma’lumotning huquqiy himoyasini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 13 ta ilmiy maqola (3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Hajmi 142 (foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismidan tashqari) bet.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida ilmiy-tadqiqot mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti yoritilgan, shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslantirilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha milliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari ya’ni muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasи bilan aloqadorligi, tadqiqot usullari, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqotlar natijalarining amaliyotga joriy qilinishi aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlар va dissertatsiyaning hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Xalqaro savdoda intellektual mulk huquqlarini tartibga solishning nazariy-huquqiy jihatlari**” deb nomlangan birinchi bobida intellektual mulk huquqlarini xalqaro darajada tartibga solishning nazariy asoslari, mavjud ilmiy nazariy konsepsiylar, savdoga oid intellektual mulk huquqlari xalqaro-huquqiy muhofazasining shartnomaviy-huquqiy asoslari, xalqaro darajada savdoga oid intellektual mulk huquqlarini tartibga solishning universal va mintaqaviy institutsional mexanizmlari ilmiy tahlil etilgan.

Tadqiqot ishida dissertant tomonidan “savdoga oid intellektual mulk huquqlari” va “intellektual mulk huquqlarining xalqaro muhofaza tizimi” tushunchalariga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan. Garchi intellektual mulk huquqlarini tartibga solishda davlatlar milliy qonunchiligi ko‘proq ahamiyat kasb etsa-da, davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan umumiy standartlar bu sohadagi milliy qonunchilikning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Intellektual mulk huquqlarining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini e’tirof etgan holda, asosiy e’tiborimizni asosan, xususiy shaxslar tomonidan qo‘llaniluvchi intellektual mulkka doir normalarning xalqaro-huquqiy tartibga solinishiga qaratamiz. Bunda milliy huquqning boshqa tarmoqlari singari, intellektual mulk huquqlari muhofazasi ham bir davlat chegaralari bilan cheklanib qolmay transmilliy xarakter kasb etayotganini rad etib bo‘lmaydi. Shu sababli, bugungi global sharoitda, intellektual mulk huquqlarini tartibga solishda, “xalqaro huquq” va “milliy huquq” yondashuvlari bir-biriga ziddiyatli emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi (komplimentar) yondashuvlar deb ayta olamiz.

Intellektual mulkning xalqaro savdo sohasiga kirib kelishi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikning xalqaro tan olinishi esa nisbatan yangi hodisadir. Xalqaro savdoda intellektual mulkning tijoriy qiymati oshgani sayin, savdo va intellektual mulk o‘rtasidagi bog‘liqlikning yanada kuchayishi, shu tariqa, savdoga oid (trade-related) yoki savdoga yo‘naltirilgan (trade-oriented) intellektual mulkka e’tibor ortdi. Bu huquqlar nazariy jihatdan, intellektual mulkning faqat mulkiy jihatlarini o‘zida aks ettirgan intellektual mulk huquqi tarmog‘i bo‘lib, davlatlarning intellektual mulk qoidalarini buzganlik yoki lozim darajada ijro etmaganligini savdo sanksiyalari tizimiga bog‘laydi. Paragraf davomida dissertant tomonidan davlatning investitsiyaviy jozibadorligiga, uning tashqi savdo hamkor sifatida tanlanishiga va iqtisodiy o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatganligi sababli intellektual mulk huquqlari “savdo bilan bog‘liq” ekanligi asoslab beriladi.

Dissertant tomonidan savdoga oid intellektual mulk huquqlarining shakllanish tarixi shartli ravishda 3 davrga bo‘linib, ushbu huquqlar evolyutsiyasining har bir davri uchun xos belgilar alohida ajratib ko‘rsatildi. 1994-yilda TRIPS bitimi imzolanishi bilan intellektual mulkning tijoriy ahamiyati jahon miqyosida rasman tan olindi. Bu intellektual mulk huquqlari xalqaro muhofazasi sohasida ilgarigi umumiy intellektual mulk huquqlari himoyasiga qaratilgan BIMT nazoratidagi rejimdan farqli faqat intellektual mulkning savdo bilan bog‘liq jihatlariga (tijoriy-mulkiy jihatlari) asoslangan rejim paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Aynan shu keyingi rejim bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi ikkitomonlama va ko‘ptomonlama hamkorlikning muhim masalalaridan biriga aylandi, milliy huquq tizimining bir qismi hisoblangan

intellektual mulk huquqlari esa xalqaro huquqning sohalari sanaluvchi xalqaro savdo huquqi va xalqaro investitsiya huquqining ajralmas qismiga aylandi.

1980-yillarda e'tirof etila boshlangan intellektual mulk va savdo o'rtasidagi bog'liqlik intellektual mulk sohasidagi norma ijodkorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Intellektual mulk bo'yicha standartlar davlatlararo savdo shartnomalarining muhim qismiga aylana boshladi, shartnomalarda keltirilgan savdo imtiyozlari davlatning intellektual mulk huquqlari himoya rejimiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Shu orqali, intellektual mulk huquqlarining xalqaro tartibotida savdoga oid intellektual mulk huquqlari qamrab olingan xalqaro-huquqiy asoslar (shartnomalar) yaratildi va bu jarayon hali ham davom etmoqda.

Zamonaviy savdo munosabatlarda savdo shartnomalari doirasida olinadigan "tarif imtiyozlari" va intellektual mulk huquqlari muhofazasi rejimi o'rtasida uzviy aloqadorlik paydo bo'ldi. Bu aloqadorlikning institutsional-huquqiy asoslarini davlatlar tomonidan tuzilgan ko'ptomonlama va ikkitomonlama erkin savdo (FTA), investitiya (BIT), imtiyozli savdo (PTA) shartnomalari tashkil qilmoqda. Xususan, JST doirasida erishilgan TRIPS bitimi bu borada markaziy rol o'ynamoqda.

Tadqiqot jarayonida "Savdoga oid intellektual mulk huquqlari" muhofazasi bo'yicha xalqaro shartnomalar klassifikatsiya (ishtirokchi davlatlarning soniga ko'ra, amal qilish doirasiga ko'ra, tartibga solish obyektiga ko'ra, qaysi tashkilot tomonidan nazorat qilinishiga ko'ra) hamda bu sohadagi xalqaro institutsional mexanizmlar (xalqaro tashkilotlar) klassifikatsiyasi (davlatlar a'zoligiga ko'ra, a'zolarining geografik joylashuviga ko'ra, faoliyat predmeti bo'yicha) yaratildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobbi "**JST doirasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish**" masalalariga bag'ishlanadi. Bunda tashkilot doirasida savdoga oid intellektual mulk huquqlarining huquqiy asoslari va ushbu huquqlarni himoya qilishning institutsional mexanizmi tahlil qilingan.

Ikkinci bobning birinchi paragrafi "JST doirasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari" deb nomlanib, unda TRIPS bitimi va u bilan bevosita aloqador shartnomalarning huquqiy tabiatini yoritilgan.

Bu paragrafda dissertant nazariyada soha olimlari tomonidan bitimning JST tizimi bilan to'la uyg'unlashmaganligi borasida bahslar hamda intellektual mulk huquqlarining savdoga potensial to'siq ekanligi va shu orqali, savdoni liberallashtirishga to'sqinlik qilishi mumkinligi haqidagi fikrlarni tahlil qiladi. Bu boradagi bahslarda ustuvor yondashuv intellektual mulk huquqlarini milliy darajada qo'llash bozorga kirishga (market access) nisbatan ko'rinnmas to'siq ekanligidir. TRIPS muqaddimasidagi "intellektual mulk huquqlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar va tartib-taomillar qonuniy savdoga to'siq bo'lmasligi kerak" degan norma hamda bitimning 7-moddasidagi bitimni "ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikka, huquq va majburiyatlar muvozanatiga yordam beradigan tarzda" qo'llashni nazarda tutuvchi qoidalar esa uning JSTning umumiyligi savdoni liberallashtirish maqsadiga mosligini tasdiqlaydi.

Dissertant paragraph davomida "TRIPS-plus" fenomenini bugungi kunda JST doirasida savdoga potensial tashqi xavf sifatida ko'radi. Ma'lumki, rivojlangan davlatlar (ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlari) bozordagi hukmron mavqeidan

foydalangan holda “TRIPS-plus” normalarini rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan qo‘llamoqda. Dissertant esa davlatlarning ikkitomonlama shartnomalarga kirishish erkinligiga putur yetkamagan holda “TRIPS-Plus” shartnomalarini butunlay taqiqlash yoki butun dunyo bo‘ylab tarqalishini oldini olish imkonsiz ekanligini ta’kidlab, JST va BIMT o‘rtasidagi kelishuvda bevosita TRIPS moslashuvchan qoidalari istisnolarini davlat tomonidan qo‘llanilishini cheklovchi “TRIPS-plus” normalarga qarshi kurash bo‘yicha aniq vakolatlarni aks ettirish ham maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotchining fikricha, TRIPS bitimi raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida isloh qilinishi, jumladan, internetda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, shu bilan birga, an’anaviy bilimlar, genetik resurslar hamda biotexnologik innovatsiyalarni o‘zida qamrab olishi zarur.

Ikkinci bobning ikkinchi paragrafi “JST doirasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmi” deb ataladi. JST doirasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmini TRIPS Kengashi va JST nizolarni hal etish organi tashkil etadi. TRIPS bitimi ijrosini nazorat qilish uchun mas’ul TRIPS Kengashi JSTning intellektual mulk masalalari bo‘yicha markaziy organi hisoblanadi, uning vakolatlari bitim normalarini a’zo davlatlarning milliy qonunchiligiga tatbiq etishdan tortib davlatlarning intellektual mulk masalalariga taalluqli xalqaro hamkorlikkacha qamrab oladi. JST nizolarni hal etish organi esa intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarni tiklashning nisbatan yangi va samarali vositasi bo‘lib, ungacha mavjud bo‘lgan vositalardan xalqaro huquqning “hard law” normalariga asoslangani bilan ajralib turadi. Dissertant tomonidan JSTning Nizolarni hal etish organi xususiy shaxslarning ichki va xalqaro tijoriy nizolarini ko‘rib chiquvchi BIMT Arbitraj va mediatsiya markaziga qaraganda intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarni tiklashning nisbatan samarali vositasi hisoblanishi asoslantirilgan.

Bundan tashqari, tadqiqotchining fikriga ko‘ra, TRIPS Kengashi tarkibiga tashkiliy jihatdan GATT Kengashiga o‘xshab muayyan intellektual mulk obyekti bo‘yicha ish olib boruvchi alohida qo‘mitalarga bo‘linishi uning ish samaradorligini oshiradi.

Dissertatsianing uchinchi bob “**JSTning savdoga oid intellektual mulk huquqlari normalarini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari**”ga bag‘ishlanib, mazkur bobda muallif TRIPS bitimini qo‘llash bo‘yicha davlatlar majburiyatları, undagi istisno holatlar, ushbu bitimning xorijiy davlatlar amaliyotiga tadbiq etilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini JST intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi normalar bilan uyg‘unlashtirish masalalarini tadqiq qiladi.

Uchinchi bob birinchi paragrafi “JSTga a’zo davlatlarda TRIPS bitimi normalarini qo‘llash bo‘yicha xalqaro-huquqiy majburiyatlar” deb nomlanib unda intellektual mulk huquqlari muhofazasi sohasidagi TRIPS bitimi normalarini ichki qonunchilik va amaliyotda qo‘llash bilan bog‘liq 4 ta yo‘nalishdagi ((1) fuqarolik va ma’muriy tartiblar va choralar; 2) vaqtinchalik choralar; 3) bojxona nazoratiga oid maxsus talablar; 4) jinoiy protseduralar) majburiyatlar yoritib berilgan.

Bundan tashqari, dissertant tomonidan bitimning har bir moslashuvchan qoidalari birma-bir tahlil etilib, ushbu holatlar “case law” orqali o‘rganildi. Bu borada olimlar

qarashlari muhokama etilib, bitimni milliy qonunchilikka qo'llashning o'ziga xos elementlari o'rGANildi. Bu borada yuzaga keladigan texnik qiyinchiliklar, milliy ekspertlar yetishmasligi va tegishli me'yoriy-huquqiy bazaning sustligi kabi sabablar tufayli davlatlar tomonidan bitim istisnolaridan foydalanish kutilganidek keng tarqalgan amaliyotga aylanmagan degan xulosa shakllantirildi. Bitimning parallel import (bitimining 6-moddasi), patent huquqlariga nisbatan umumiyligi istisnolar (30 va 31-modda) hamda majburiy litsenziyalash (31(bis)-modda) bilan bog'liq moslashuvchan qoidalari davlatlar amaliyotida keyslar doirasida tahlil qilindi.

"TRIPS bitimini qo'llash bo'yicha xorijiy davlatlar huquqiy amaliyotining qiyosiy-huquqiy tahlili (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida)" deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafda dissertant tomonidan, xorijiy amaliyotni o'rganish uchun Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari tanlab olindi. Tahlil natijasida dissertant o'rganilgan davlatlar tajribasini umumlashtirib bitimni amaliyotga tatbiq etish jarayonlaridagi umumiylilik va farqli jihatlarni yoritadi hamda O'zbekiston Respublikasi amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqadi. Xusasan, o'rganilgan mamlakatlardan tajribasidan bitimning o'tish davrlari bilan bog'liq imtiyozlarini, XXRdagi jamoat salomatligi sohasida majburiy litsenziyalash amaliyotini milliy qonunchilikda qo'llash bilan bog'liq tajribasini, RF va Markaziy Osiyo mamlakatlaridan esa bitimning bojxona choralarini bilan bog'liq normalarini implementatsiya qilish tajribasini, XXR va RFdagi ixtisoslashtirilgan intellektual mulk sudlari tajribasini o'rganish va ular yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan holda O'zbekiston Respublikasi amaliyotiga ham joriy qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish tavsiya qilinadi.

Uchinchi paragraf bevosita O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini TRIPS bitimi normalari bilan muvofiqlashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bunda dissertant rivojlanayotgan davlatlardan biri sifatida bitimning o'zida nazarda tutilgan o'tish muddatlaridan foydalanish qonunchilikni uyg'unlashtirishdagi ba'zi ma'muriy, moliyaviy va texnik qiyinchiliklarni yengib o'tishda amaliy yordam beradi degan xulosaga keladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi JST TRIPS bitimiga uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar bayon etilgan qiyosiy jadval tayyorlanib dissertatsiya ishiga ilova qilindi.

## XULOSA

Ushbu ishda Jahon Savdo Tashkiloti doirasida intellektual mulk huquqlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining kelgusida JSTga kirishi asnosida milliy qonunchilikni ushbu tashkilotning intellektual mulk huquqlariga bag'ishlangan TRIPS bitimi normalari bilan uyg'unlashtirish istiqbollarini tahlil qilish quyidagi nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

**1.1.** Intellektual mulk huquqlarining xalqaro tartibga solinishi bugungi globallashgan dunyoda tobora ko'proq xalqaro huquqqa asoslanmoqda degan xulosaga kelish mumkin. Bu borada olimlar va tadqiqotchilar fikrlarini o'rgangan holda, dissertant tomonidan ushbu tartibotni ta'riflash uchun "intellektual mulk huquqlarining

xalqaro muhofaza tizimi” tushunchasi tanlab olingen va unga mualliflik ta’rifi berilgan. Unga ko‘ra, intellektual mulk huquqlarining xalqaro muhofaza tizimi – xalqaro huquq subyektlari tomonidan ma’lum bir davlat hududida yaratilgan intellektual mulk obyektining davlat chegaralaridan tashqarida ham himoyasini ta’minalash uchun yaratilgan huquqiy vositalar (xalqaro shartnomalar, xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar) majmuidir. Intellektual mulk huquqlari xalqaro huquq va milliy huquq nisbatlarida o‘rganildi hamda intellektual mulk huquqlarini xalqaro-huquqiy tartibga solishda “xalqaro huquq” va “milliy huquq” yondashuvlari bir-biriga ziddiyatli emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi (komplimentar) yondashuvlar deb topildi.

